



## THE IMPORTANCE OF THE "STEP TOWARDS PHD" PROJECT IN DEVELOPING THE SCIENTIFIC POTENTIAL OF YOUNG SCIENTISTS IN UZBEKISTAN

Farkhodova Makhliyobonu Khusanjon qizi

Doctoral Student of the Institute for Retraining and Advanced Training of Directors and Specialists of Preschool Education

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17222614>

### ARTICLE INFO

Received: 13<sup>rd</sup> September 2025

Accepted: 28<sup>th</sup> September 2025

Online: 29<sup>th</sup> September 2025

### KEYWORDS

Young researchers, scientific potential, Step towards PhD project, innovation, international cooperation, quality of education.

### ABSTRACT

*The article highlights the role and significance of the "Step towards PhD" project in developing the scientific potential of young researchers in Uzbekistan. In the context of global competition, this project is of great importance as it supports young scholars, provides them with methodological assistance, promotes international scientific cooperation, and helps them achieve success in research activities. Within the framework of the project, training sessions are organized to develop research methodology, presentation of research results, public speaking, psychological preparedness, and other skills. These initiatives contribute to further enhancing the scientific capacity of young female researchers.*

## O'ZBEKISTON YOSH OLIMALARINING ILMIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA "PHD SARI QADAM" LOYIHASINING AHAMIYATI

Farxodova Maxliyobonu Xusanjon Qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti doktoranti  
[mahliyobonufarxodova@gmail.com](mailto:mahliyobonufarxodova@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17222614>

### ARTICLE INFO

Received: 13<sup>rd</sup> September 2025

Accepted: 28<sup>th</sup> September 2025

Online: 29<sup>th</sup> September 2025

### KEYWORDS

Yosh olimlar, ilmiy salohiyat, PhD sari qadam loyihasi, innovatsiya, xalqaro hamkorlik, ta'lim sifati.

### ABSTRACT

*Maqolada O'zbekiston yosh olimlarining ilmiy salohiyatini rivojlantirishda "PhD sari qadam" loyihasining o'рни va ahamiyati yoritilgan. Global raqobat sharoitida ta'lim va fan sohasida raqobatbardoshlikni ta'minlashda ushbu loyiha yosh tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash, ularga metodik yordam ko'rsatish, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish hamda ilmiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishlariga ko'maklashishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Loyiha doirasida yosh olimlar uchun*



*ilmiy metodologiya, tadqiqot natijalarini taqdim etish, notiqlik san'ati, psixologik tayyorgarlik va boshqa ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar tashkil etilib, ular orqali yosh olimlarning ilmiy salohiyati yanada oshmoqdaligi yoritilgan.*

O'zbekiston yosh olimlarining ilmiy faoliyatini rivojlantirish, global zamonaviy sharoitda ta'lim va fan sohasida raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadi, milliy rivojlanish strategiyalarida aniq belgilangan. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlari ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar asosida shakllanayotgani sababli, ushbu jarayon malakali yosh olim va olimlarni tayyorlash bilan bevosita bog'liqdir. "Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021-yildagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-son [qarori](#) ga ko'ra: - ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning sifatli ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish; - yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlashga qaratilgan "Besh muhim tashabbus"ni amalga oshirish vazifalari, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda yoshlar bilan ishlashning yangicha modellarini yaratish va xalqaro standartlarga mos mexanizmlarni ishlab chiqishni nazarda tutuvchi "O'zbekiston yoshlari - 2030" Konsepsiyasi, 2019-2020 yillarda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida amalga oshiriladigan ishlarni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha "Yo'l xaritasi" vazifalari; - yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 5 ta tashabbusni yoshlarimizning kundalik turmush tarziga aylantirish borasidagi amaliy chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish va natijadorligini oshirish;- ijodkor, tanqidiy-tahliliy mushohada orqali erkin fikrlovchi, ishbilarmon, tadbirkor hamda intellektual salohiyati yuqori bo'lgan bugungi kun qahramoni timsolini yaratish;-yosh xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash, ularda oilaviy qadriyatlarini mustahkamlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish; -xorijdagi vatandoshlar bilan ishlash, xalqaro yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlik qilish va xalqaro doirada tajriba almashinuv tizimini yanada takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida 2023-yildan berish faoliyat olib borayotgan, O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi muassisligidagi Respublika yosh olimlar Kengashining xotin-qizlar uchun mo'ljallangan "PhD sari qadam" loyihasi bu vazifalarni qo'llab-quvvatlab, amalga oshirishda asosiy yo'nalish hisoblanadi - desak mubolog'a bo'lmaydi, chunki ular yosh tadqiqotchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, ilmiy faoliyatini kengaytiradi va ilmiy hamkorlikni mustahkamlaydi. Shuning uchun, "PhD sari qadam" loyihasini rivojlantirish — yosh olimlarning ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilgan muhim amaliy chora-tadbirlardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ilm-fan va ta'limni rivojlantirishga qaratilayotgan bir paytda, albatta, yosh avlodning ilmiy



salohiyatini shakllantirish milliy taraqqiyotning strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, zamonaviy talablarga mos ravishda qaror topmoqda. Hozirgi kunda, yosh olimlarni zamonaviy ilmiy-tadqiqot dasturlari va metodologiyalarni o'zlashtirish orqali qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samarali ishlay boshlagan. Biroq, ularning ilmiy faoliyatini rag'batlantirish va xalqaro standartlarga muvofiq malakali kadrlar tayyorlash masalalari dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ushbu dolzarblikni oldina olish maqsadida, Respublika yosh olimlar Kengashining "PhD sari qadam" loyihasi, yosh olimlarning ilmiy faoliyatini rivojlantirish va ularni xalqaro ilmiy arenada tanitish maqsadida tashkil etilgan muhim tashabbusdir. Ushbu loyiha, dissertatsiya yozayotgan yosh olimlarga qo'llab-quvvatlash, bilim va tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish, shuningdek, ilmiy tadqiqot jarayonida muvaffaqiyat qozonishlariga yordam berish uchun mo'ljallanadi. Loyihaning asosiy maqsadi, yosh olimlarga PhD dasturlarida ta'lim olish jarayonida yuzaga keladigan olti yo'nalish bo'yicha; Himoya jarayonlariga psixologik tayyorgarlik, Ilmiy ish yangiligini loyihalash, Ilmiy tadqiqot metodologiyasi, Ilmiy ishni to'g'ri rasmiylashtirish va adabiyotlar bilan ishlash, Tadqiqotchilardagi notiqlik sa'natini shakllantirish, Matematik statistik tahlil qilish jarayonlardagi qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam berishdan iborat. "PhD sari qadam" loyihasi doirasida yosh tadqiqotchilar nafaqat mahalliy professor-ustozlar tomonidan tashkil etilgan; seminarlar, vebinarlar, treninglar va ilmiy-amaliy mashg'ulotlar bilan-gina cheklanmay balki, xalqaro darajadagi professor, mentorlar bilan ham yuzma -yuz va online tarzda bevosita suhbatlashish orqali o'z bilimlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu tadbirlar, nafaqat nazariy bilimlarni kuchaytirish, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, dissertatsiya yozayotgan yosh olimlar o'z tadqiqotlariga oid yangi metodologiyalarni o'rganish, zamonaviy ilmiy uslublarni qo'llash va innovatsion yechimlar ishlab chiqish, sohalarida yetakchi mutaxassislar bilan fikr almashish, o'z tadqiqotlariga oid masalalarda yo'l-yo'riq olish va ilmiy faoliyatlarida muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

Yosh olimlar uchun "Phd sari qadam loyihasi"ning olti yo'nalishdagi dars mashg'ulotlari bir qator imkoniyatlar yaratadi:

1. Tajribali mutaxassislar bilan muloqot: yosh olimlarga o'z sohasida tajribali tadqiqotchilar bilan bevosita muloqot qilish imkonini beradi. Bu, ular uchun muhim masalalarda yo'l-yo'riq olish va maslahatlar olish imkoniyatini taqdim etadi.

2. Ilmiy faoliyatni rivojlantirish: dars mashg'ulotlar yordamida yosh olimlar o'z tadqiqotlarini yaxshilash, ilmiy ishlarini mukammallashtirish va yangi g'oyalarni amalga oshirish bo'yicha strategiyalarni o'rganishlari mumkin.

3. Tarmoq yaratish: dars mashg'ulotlar orqali yosh olimlar ilmiy hamjamiyatda o'z tarmoqlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Professor-ustozlar orqali yangi hamkorlik aloqalari o'rnatish va boshqa tadqiqotchilar bilan fikr almashish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

4. Karyera rivojlanishi: professor-ustozlar yosh olimlarga karyera yo'nalishlarini tanlashda yordam berishlari mumkin. Ular o'z sohalaridagi imkoniyatlar, tadqiqot grantlari va stipendiyalar haqida ma'lumot berishlari mumkin.



5. Ilmiy tadqiqotlarning sifatini oshirish: professor-ustozlar yordamida yosh olimlar o'z tadqiqotlarida ilmiy metodologiyalarni to'g'ri qo'llash, ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarni taqdim etish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi.

6. Innovatsion fikrlash: professor-ustozlar yosh olimlarga yangi g'oyalarni ishlab chiqishda va innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishda yordam berishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, yosh olimlarning tadqiqotlarining raqobatbardoshligini oshiradi.

7. Tadqiqot natijalarini taqdim etish: professor-ustozlar yordamida yosh olimlar o'z tadqiqot natijalarini xalqaro ilmiy konferensiyalarda taqdim etish va ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish bo'yicha tayyorgarlik ko'rishlari mumkin.

8. Shaxsiy rivojlanish: dars mashg'ulotlari yosh olimlarga shaxsiy rivojlanishda, masalan, kommunikatsiya ko'nikmalarini oshirish, vaqtni samarali boshqarish va jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi.

Umuman olganda, yosh olimlar uchun "Phd sari qadam loyihasi"ning olti yo'nalishdagi dars mashg'ulotlari, ularning ilmiy faoliyatini rivojlantirishda, karyeralarini mustahkamlashda va innovatsion g'oyalar yaratishda muhim qadam hisoblanadi.

Yosh olimlarning muvaffaqiyatlarini yoritib o'tadigan bo'lsak, loyiha davomida turli xil sohadagi yosh olimlarimiz turfa xildagi bilimga asoslangan tadbirlarda ishtirok etadilar va rag'batlantiriladilar. Masalan, "O'zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi", "Zakovat intellektual" va "Yosh kitobxon haftaligi". Shuningdek, loyiha ishtirokchilari qonunchilik palatalariga ham tashrif buyurib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati faoliyati bilan ham tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi va xatto O'zbekiston Respublikasi Senatorlari bilan ham bevosita suhbatlashish imkoniyatini qo'lga kiritishlari ham mumkin. Yosh olimlarning yutuqlarini namoyon etish maqsadida, loyihaning so'nggi bir qismi sifatida tashkil etilgan "Eng yaxshi ishtirokchi", "Eng yaxshi yozilgan maqola" tanlovlari, yosh tadqiqotchilarni rag'batlantirishga qaratilgan. Ushbu tanlovlar orqali yosh olimlar o'z ilmiy ishlarini keng jamoatchilikka taqdim etish, o'zaro fikr almashish va boshqalardan konstruktiv tanqid olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning natijasida, dissertatsiya yozayotgan yosh olimlar, nafaqat o'z tadqiqotlarini mukammallashtirish, balki boshqa tadqiqotchilar bilan hamkorlik qilish va ilmiy tarmoqni kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

"PhD sari qadam" loyihasi, shuningdek, yosh olimlarning xalqaro ilmiy hamjamiyatga integratsiyasini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Dissertatsiya yozayotgan yosh olimlar, mahalliy va xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish, ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish va boshqa mamlakatlardagi tadqiqotchilar bilan hamkorlik o'rnatish orqali o'z tadqiqotlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon, o'z navbatida, O'zbekiston ilm-fanining global miqyosda tanilishi va yosh olimlarning mahalliy va xalqaro ilmiy maydondagi o'rnini mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa, "PhD sari qadam" loyihasi, O'zbekiston yosh olimlarining ilmiy salohiyatini oshirish, ularni dissertatsiya yozish jarayonida qo'llab-quvvatlash, mahalliy va xalqaro ilmiy hamjamiyatda tanitish maqsadida muhim dastur hisoblanadi. Ushbu loyiha orqali yosh tadqiqotchilar o'z bilimlarini kengaytirish, yangi g'oyalarni amalga oshirish va ilmiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zbekiston yosh



olimolarining ilmiy faoliyatini rivojlantirishda "PhD sari qadam" loyihasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, kelajakda mamlakat ilm-fanini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). *O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 23-son qarori*. 18-yanvar, Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida PF-5712-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Xalq deputatlari Boyovut tumani kengashining qo'shma qarori, 25.02.2021 yildagi 19/118-6-son
4. <https://tsuos.uz/phd-sari-qadam-mavzusidagi-ilmiy-amaliy-seminar/>
5. <https://lex.uz/docs/-5358408>